

XULQIDA NUQSONI BO'LGAN TARBIYASI OG'IR BOLALAR BILAN TARG'IBOT-TASHVIQOT ISHLARINI OLIB BORISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Xamdamova Gulnoz Xayrullo qizi
Qo'shrabot tuman MMTB ga qarashli
18-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada xulqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan psixologik targ'ibot-tashviqot ishlarining mazmuni, usullari va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bunday bolalarning xulq-atvoridagi muammolarni aniqlash, oldini olish va ijobiy yo'nalishga burishdagi psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, nuqson, o'quvchi, psixologiya, profilaktika, targ'ibot, tarbiya, moslashuv.

KIRISH

Xulqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash ta'lim tizimida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday bolalar ko'pincha intizomga bo'ysunmaslik, agressivlik, yolg'on gapirish, darslarga qiziqmaslik yoki ijtimoiy qoidalarga rioya qilmaslik kabi xatti-harakatlar bilan ajralib turadi. Ushbu holatlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lib, ularni chuqur o'rganish zarur.

Xulqdagi nuqsonlarning asosiy sabablari qatoriga oiladagi nosog'lom muhit, noto'g'ri tarbiya usullari, e'tibor yetishmasligi, tengdoshlar ta'siri va psixologik muammolar kiradi. Ba'zan bolaning ichki hissiy holati — tushkunlik, xavotir yoki o'ziga ishonchsizlik ham salbiy xulq-atvorni keltirib chiqarishi mumkin.

Psixologik targ'ibot-tashviqot ishlari bunday holatlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar bilan olib boriladigan tushuntirish, suhbat va treninglarni o'z ichiga oladi. Asosiy maqsad — ijobiy xulq-atvorni shakllantirish va salbiy xatti-harakatlarning oldini olishdir.

O'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv muhimdir. Har bir bolaning muammosi alohida ko'rib chiqilib, unga mos psixologik yordam ko'rsatilishi zarur. Ishonchli muloqot orqali bolaning ichki kechinmalarini aniqlash va unga yordam berish mumkin.

Tarbiyasi og'ir bola — bu xulq-atvori, muomalasi yoki ijtimoiy moslashuvida muammolari bo'lgan, tarbiyaviy ta'sirlarga qiyin bo'ysunadigan o'quvchidir. Bunday bolalar odatda umumiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilmaslik, darsga qiziqmaslik yoki atrofdegilar bilan muammoli munosabatlarda bo'lishi bilan ajralib turadi.

Asosiy belgilari:

- intizomsizlik, dars jarayoniga bo‘ysunmaslik
- agressivlik yoki qo‘pollik
- yolg‘on gapirish, mas’uliyatsizlik
- o‘qishga qiziqmaslik
- tengdoshlar bilan tez-tez nizoga kirishish
- kattalarning talablarini inkor etish

Kelib chiqish sabablari:

Tarbiyasi og‘irlik odatda birgina sabab bilan emas, balki bir nechta omillar ta’sirida yuzaga keladi:

- oiladagi nosog‘lom muhit (janjal, e’tiborsizlik, haddan tashqari qat’iylik)
- noto‘g‘ri tarbiya usullari
- mehr va e’tibor yetishmasligi
- tengdoshlarning salbiy ta’siri
- psixologik muammolar (xavotir, ichki ziddiyatlar)

Psixologik yondashuv:

Bunday bolalar bilan ishlashda eng muhim jihat — ularni jazolash emas, balki tushunish va to‘g‘ri yo‘naltirishdir.

- individual yondashuv qo‘llash
- ishonchli muloqot o‘rnatish
- ijobiy xulqni rag‘batlantirish
- kichik yutuqlarni e’tirof etish
- psixologik trening va mashg‘ulotlar o‘tkazish

Oila va maktab roli:

Ota-onalar bolaga mehr va e’tibor berishi, uning muammolarini tinglashi kerak. O‘qituvchilar esa sabrli va adolatli yondashib, bolani jamoaga moslashtirishga yordam berishi zarur. Tarbiyasi og‘ir bola — bu “yomon bola” emas, balki ko‘proq e’tibor, tushunish va to‘g‘ri yondashuvga muhtoj bo‘lgan o‘quvchidir. To‘g‘ri psixologik ishlar orqali uning xulqini ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkin.

Guruhli mashg‘ulotlar va treninglar ham samarali hisoblanadi. Ular orqali bolalarda muloqot madaniyati, o‘zini tutish ko‘nikmalari va ijtimoiy moslashuv rivojlanadi. Rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar orqali to‘g‘ri xulqni o‘rgatish mumkin. Ota-onalar bilan olib boriladigan targ‘ibot ishlari ham katta ahamiyatga ega. Ularga farzand tarbiyasida to‘g‘ri yondashuv, mehr va nazorat muvozanatini saqlash, bolani tushunish zarurligi tushuntiriladi.

Pedagoglar esa dars jarayonida bolaga nisbatan sabrli, adolatli va qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi kerak. Salbiy xulqni faqat jazolash orqali emas, balki tushuntirish va yo‘naltirish orqali bartaraf etish muhimdir.

Olimlarning fikricha bolada mavjud noto‘g‘ri salbiy o‘zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me’yor darajasiga yetkazish orqali tarbiyasidagi qiyinchiliklarni

yo'qotishga erishish mumkin. Shunday ekan, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inson tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch – ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir.

Ma'lumki odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan berilmaydi deb izoh beriladi. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, real hayotda ko'pincha insonning xarakter xususiyatidagi salbiy og'ishlar uning nasliy tarkibi bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz. Agar bola tartibsiz, intizomsiz davraga o'ralashib kirib qolgan bo'lsa, uni tezlik bilan o'sha davradan ajratib olib, so'ng o'sha tarbiyasi og'ir bolani "yaxshi" va "a'lo" baholarga o'qiydigan intizomli o'quvchilarga birlashtirib qo'yish kerak.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishgandan buyon jamiyatimizda kelajagimiz bunyodkori bo'lgan yoshlarga nisbatan bo'lgan e'tibor ancha kuchayadi. Ayniqsa xalq ta'limi sohasida jiddiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Bugungi kunda o'quvchilar tarbiyasidagi ijobiy o'zgarishlarni har damda sezish mumkin. O'zbekistonni butun jahon tan olayotgan bir paytda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash muhim omillardan biri bo'lib hisoblanmoqda. "Kelajakka qanday yoshlar kerak? Ularni qanday tarbiyalash lozim?" degan savollar hozirgi kunda har bir jonkuyar pedagogni tashvishga solib kelmoqda. Bola maktab ostonasiga qadam qo'ygunga qadar oiladagi olti, yetti yillik hayoti mobaynida oila birinchi darajali tarbiyachi ekanligini ham nazarda tutish lozim.

Bolalar narsa va hodisalarning mohiyatiga o'zlaricha baho beradilar. Ular ezgulik mezonini intilishlari mo'ljalini dastavval ota-onalari hayoti tarziga qarab belgilaydi. Yaxshi tarbiya berib yaxshi kishilarni kamol totirgan oilalardagi sofdillik, samimiylik, bir-biriga hurmat, bolalarda ham shu fazilatlarini kamol topishiga sabab bo'ladi. Ahil oilada bolaning xulq-atvori me'yorlari to'g'risidagi tasavvuri otaonalarning hulqi bilan uyg'un bo'lsa farzandlarini oqilona so'rab – tergap tursalar bu uydan tarbiyasiz bola chiqishi mumkin emas. Harqalay haqiqat, mehr-oqibat, adolat tushunchalari, ichi qoralik, loqaydlik, ma'naviy zaiflik, insoniy munosabatlardagi qashoqlik, ahloqiy nopoklik hukm surgan oilalarda o'sgan bolalarning tarbiyasi ko'pincha izdan chiqadi. Bola yaxshilik va yomonlikka, haq va nohaqlikka nisbatan juda sezgir bo'ladi. Agar katta yoshdagi odam nohaqlikka xato deb tushinish mumkin bo'lsa, bola hayotning barcha murakkabliklarini hali tushinmaydi.

Afsuski, katta yoshdagilarning hammasi ham bolani ruhiy kechinmalari to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lmaydi. Ruhiiy holat insonning biron – bir tarzda ta'sir etuvchi xatti-harakatlariga berilgan chuqur shaxsiy emotsional bahodir.

Bolaga nohaqlik qattiq ta'sir qiladi. Bola qo'pol baqiriqda ham, mazax qilishda ham, yo'l-yo'lakay aytilgan tanbehda ham, kattalarning bolaga e'tiborsizligida ham nohaqlik ko'radi. Nohaqlik haqorat bo'lib tuyuladi, uning izzat nafsiga tegadi, g'azabini qo'zg'aydi, uning qalbida aktiv(nafarat) va passiv(g'iybat va ko'ra olmaslik) norozilikning turli tuman formalarini keltirib chiqaradi. Katta yoshdagi odamni yengilgina hayajonlantirgan narsa, bolada katta kulfatning manbai bo'lishi mumkin.

Ota-onaning yengil-yelpi mehnatni oqlab, oson pul toppish yo'llarini bolalar oldida maqtab gapirishlari, otaning o'z hamkorini mazax qilib, maqtanib aytgan gaplari bolaga axloqsizlik darajasini ochib beradi. "Tarbiyasi og'ir" va uzluksiz bo'lsagina ijobiy samara beradi. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish — murakkab ijtimoiy- pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bolgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.
- Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion- pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.
- Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sababoqibatli asoslari)ni aniqlash.
- Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksionpedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.
- Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.
- Bolalarni rehabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.
- Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi. Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakatdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xulqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan psixologik targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish kompleks yondashuvni talab qiladi. Oila, maktab va psixolog hamkorligi orqali bunday bolalarning ijtimoiy moslashuvi va ijobiy rivojlanishini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi|| Maruza matni.T-2001
2. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik) – T: «Barkamol fayz media», 2018
3. Islomova, O. (2021). UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA SHAXOBCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR..
4. Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании.
5. ZIYO.NET